



XIX ASR OXIRI- XX ASR BOSHLARIDA BUXORO VOHASI AHOLISINING IJTIMOYIY TURMUSH TARZI

SAYFULLOYEVA NOZANIN

NavDU TARIX TA'LIM YO'NALISHI TARIX fakulteti 2kurs
talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15490269>

ARTICLE INFO

Received: 15th May 2025

Accepted: 19th May 2025

Published: 22nd May 2025

KEYWORDS

Buxoro vohasi, ijtimoiy turmush tarzi, an'anaviy hayot tarzi va aholi qatlamlari, hunarmandchilik, savdo sotiq, qishloq xo'jaligi, oila, jamiyat, urf-odat, islom an'analari, yer egaligi.

ABSTRACT

XIX asr oxiri Markaziy Osiyining eng yirik va madaniy jihatdan boy hududlaridan biri bo'lib o'zining o'ziga xos ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan ajralib turadi. Bu davrda Buxoro amirligi mustaqil feodal davlat sifatida mavjud bo'lib, Rossiya imperiyasining siyosiy ta'siri ostida bo'lsa-da, ichki hayotida o'z an'analari va qadriyatlarini saqlab qolgan edi. Sadriddin Ayniy asarlarida XIX asr – XX asr boshlarida Buxoroning oddiy aholisining turmush tarzi to'g'risida to'laqonli tushuncha hosil qilish mumkin. Buxoro aholisining aksariyat qismi kanbag'al holda ya'ni tirikchilikni ham zo'rg'a o'tkaza oladigan darajada hayot kechirgan. Shunga yarasha turar joylar ham oddiy, loydan qurilgan. Derazalarga kamdan kam shisha o'rnatilgan. Ammo madrasalar va boy amaldorlarning uylari ancha tuzukroq holatda bo'lib asosan maxsus malakali me'morlar tomonidan qurilgan. Chegara atrofidagi yerlar ham chetda qolmagan. Asosan vaqf hisobidan, undan tashqari mahalliy boylar homiyliги hisobidan ham masjid va maqbaralar qurilgan, ta'mirlangan.

Dehqonlar-asosiy iqtisodiy faoliyatni amalga oshirgan. Paxta, bug'doy, arpa, sabzavot va mevalar yetishtirilgan. Sug'orish tizimi an'anaviy ariq va kanallarga asoslangan edi.

Hunarmandlar-kulolchilik, zargarlik, misgarlik, gilamdo'zlik va yog'och o'ymakorligi kabi kasblar rivojlangan. Mahalliy bozorlarda ichki va tashqi savdo yuritilgan, karvonsaroylar faoliyat ko'rsatgan.

Savdogar-ipak yo'li orqali tashqi savdo faoliyatini amalga oshirgan. Mahalliy bozorlarda ichki va tashqi savdo yuritilgan, karvonsaroylar faoliyat ko'rsatgan.

Islom- aholi hayotining ajralmas qismi edi. Har bir mahallada masjidlar mavjud bo'lgan. Sufiylik qatlamlari kuchli mavqega ega bo'lgan. Diniy qatlam-imomlar, mudarrislar, xatiblar va boshqa diniy arboblarning jamiyatda muhim o'rin tutgan. Ular nafaqat diniy, balki ma'naviy hayotni boshqarishda ham yetakchi bo'lishgan. Buxoro vohasi musulmon dunyosining muhim markazlardan biri hisoblanib, bu yerda ko'plab madrasa, masjid va ziyoratgohlar faoliyat

yuritgan. Islom dini aholining hayot tarzida katta o'rin egallagan: nikoh, tug'ilish, o'lim kabi asosiy marosimlar shariat asosida amalga oshirilgan. Ramazon, Qurbon Hayiti, Navro'z kabi diniy va an'anaviy bayramlar jamoaviy tarzda nishonlangan. Bu marosimlar xalq orasidagi birlik va birdamlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutgan.

XX asr boshlariga kelib, Buxoroda eski maktab va madrasa tizimi mavjud edi. Madrasalar Buxoroning ta'lim markazlari bo'lib ulamolar, hofizlar va shoirlar yetishib chiqqan. Ta'limda diniy fanlar – Qur'on, hadis, fiqh, arab tili va boshqa diniy ilmlar asosiy o'rin egallagan. Biroq jadidlar harakati bilan dunyoviy bilimlarni o'rgatuvchi yangi usul maktablari ham paydo bo'la boshladi. Jadidchilik harakati Buxoro vohasida ma'rifat, ilm fan va ijtimoiy islohotlar tarafdori bo'lib, ijtimoiy ongni uyg'otishda katta rol o'ynadi. Zamonaviy ilm-fanlar (matematika, geografiya) faqat ayrim yirik madrasalarda bo'lgan. Yozma manbalarga ko'ra 1900- yilga kelib Buxoroda 365 ta madrasa faoliyat yuritgan, bu esa shaharning har kuni uchun bitta madrasa to'g'ri kelishini anglatadi.

Davlat tuzumi. Davlat tuzumi monarxiya edi. Davlat boshqaruvida amir cheklanmagan huquqqa ega bo'lgani holda amaldorlar guruhi orqali boshqargan. Davlat ishlarini boshqaruvchi oliy amaldor Qo'shbegi bo'lib, u soliqlar yig'imi nazoratini boshqarar, ma'muriy amaldorlar tarkibiga rahbarlik qilar, mahalliy beklar bilan yozishmalar olib borgan. Qo'shbegi har kuni shaxsan hukmdorga amirlikdagi ahvol to'g'risida malumot berib turar edi. Boshqaruv tizimida amir amaldorlarning o'zlaridan foydalanib bir-birlari haqida malumotga ega bo'lib turgan. "Raislar Buxoro davlat idorasining qoidasiga muvofiq hamkasblarining yomon qilmishlarini yashirincha amirga ma'lum qilib turishlari lozim edi".

Buxoroda nafaqat odamlarning mol mulki, uning kelib chiqishi ham uning mavqeini belgilagan. Ya'ni aslzodalik tamoyili mavjud bo'lgan va bazilar bunga qattiq etibor bergan. Hozirda ham yurtimizning bazi hududlarida eshonlar, xo'jalar kabi oqsuyak aslzodalar yashaydigan joylar mavjud. Undan tashqari XIX asr oxirigacha qullik amalda saqlanib qolgan. 1917-yilga kelib inqilobiy harakatlar natijasida bu tizim asta sekin yo'qotildi. Arxiv manbalariga ko'ra 1886-yilda Buxoroda 25 mingdan ortiq qul bo'lgan.

Buxoroda nasl-nasab, kelib chiqish masalasiga kuchli e'tibor qaratilgan. Bazi tabaqa vakillari o'zini shu qadar yuqori tutganki hatto ahvollari og'irlashib qolsa ham ayrim mehnat turlarini mutlaqo bajarmagan. Bu xususida Sadriddin Ayniy esdaliklarida keltirib o'tgan. "Jo'ybori xo'jalarning bir qismi zamindor, amaldor va sarmoyadorlar bo'lsalar ham, qolgan qismi qashshoq odamlar. Jo'yboriy xojalarga bir mansub qashshoqlarning ahvoli boshqa toifaga mansub qashshoqlarning ahvolidan battarroq, chunki boshqa qashshoqlar biror kasbkor bilan mashg'ul bo'ladi va hech bo'lmasa hammollik, mardikorlik qilib kun kechiradi. Ammo Jo'ybor xo'jalariga ish qilish, kasb o'rganish, mardikorlik qilish ayb va or bo'lgan. Eski an'anaviy odat yuzasidan bunday ishlar ularning hojalik sharafiga isnod keltiradi". Buxoro vohasi ipakchilik, gilamdo'zlik, zargarlik, misgarlik kabi kasblar markazi edi. Buxoro Chorsu bozori o'zining savdo hajmi va xilma xil mahsulotlari bilan mashhur bo'lgan. XIX asr oxirida vohada savdo Rossiya, Eron, Hindiston va Xitoy bilan olib borilgan. 1895- yil Buxoro va Rossiya o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi 1 million rubldan oshgan. XIX asr oxiri- XX asr boshlarida Buxoro vohasi aholisining ijtimoiy turmush tarzi o'zining qadimiy an'alariga tayanib, feodal diniy jamiyatga xos xususiyatlarga ega edi. Bu davrda diniy qadriyatlar, ijtimoiy tabaqalanish, an'anaviy kasb-hunarlar asosiy hayotiy yo'nalish bo'lib, jadidchilik harakati esa bu ijtimoiy hayotni yangilashga intilgan muhim kuch sifatida maydonga chiqdi.

XIX asr oxiri- XX asr boshlarida Buxoro vohasi ijtimoiy hayoti o'ziga xos feodal-diniy tuzumga asoslangan bo'lsada, tashqi ta'sirlar, jumladan Rossiya imperiyasining siyosiy va iqtisodiy bosimi natijasida asta-sekin modernizatsiya boshlangan. Hunarmandchilik va savdo rivoji,

madrasalarda ta'limning kengligi, ayollarning cheklangan bo'lsada , iqtisodiy faoliyatidagi ishtiroki, bu davr hayotining murakkab va rang- barang qirralarini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Xolmo'minov X.(2020) XIXasr oxiri –XXasr boshlarida Buxoro vohasi aholisining demografik jarayonlari. 28-35- b
- 2.Aloviddinob M. "To'tiyo istab"T: "Yangi asr avlodi" 19-b
- 3.S.Ayniy "Esdaliklar" III- qism. Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti 1965. 93-b
- 4.S.Ayniy "Esdaliklar" III-qism Toshkent badiiy adabiyoti 1965. 214-b
- 5.A. Vamberi "Buxoro sirlari " 1864. 19-b

